



QALBLARDA ISTIQLOL SHUKUHI

2

IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARI BARQAROR

3

VATANPARVARLIKNING YORQIN TIMSOLI

5

Po'lat o'tda toblanadi, odam - mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 31-avgust № 8 (1530)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

“YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!” MUKOFOT MUBORAK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”-gi Farmoni chiqdi. Ushbu Farmonga binoan mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha sohalarida islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash, Yangi O'zbekistonni barpo etish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, inson qadrini ulug'lash kabi ezgu maqsadlar yo'lidagi katta xizmatlari, zamonaviy ishlab chiqarish quv-



vatlarini yaratish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni saqlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlaridagi ibratli faoliyati uchun faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlanganlar orasida “O'zmetkombinat” AJ vakillari ham borligi biz uchun quvonarlidir.

“O'zmetkombinat” AJ boshqaruvi raisi – bosh direktori Rashid Pirmatov “Mehnat shuhrati” ordeni va Elektrda po'lat eritish sexi po'lat erituvchisi Abdurahmon Turdimurotov “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Mukofotlar muborak bo'lsin!

MUSTAQILLIGIMIZ – FAXRIMIZ

Hurmatli metallurklar, ishlab chiqarish faxriylari, qadrli bekobodliklar!

Ko'p millatli xalqimiz ulug' ayyom – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kunini tantanali ravishda kutib olmoqda.

Bu bayram davlatimiz ozodligi va qudrati ramzi hisoblanadi. Xalqimizning asriy orzu-intilishlari ro'yobga chiqqan davlat mustaqilligi kuni buyuk tarixiy sana bo'lib, el-yurtimiz tomondan eng ulug', eng aziz bayram sifatida doimo katta shodu xurramlik bilan nishonlanib keladi. Biz Vatanimizning shonli tarixi, xalq an'analari, boy va o'ziga xos madaniyati, betakror tabiiy merosi bilan faxrlanamiz.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatchilikni mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirish, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Davlatimizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xalqimiz bilan birgalikda tanlangan va amalga oshirayotgan rivojlanish yo'limiz naqadar to'g'riligini amalda ko'rsatmoqda.

Kombinatimiz ishlab chiqarish sur'atlarini muttasil oshirib, mahsulot turini kengaytirib, davlatimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shayotganini faxr va katta mamnuniyat bilan qayd etamiz. Metallurklar jamoasining fidokorona mehnati tufayli “O'zmetkombinat” AJ xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatini yaratuvchi muhim natijalarga erishgan holda ko'plab jiddiy vazifalarni hal qilmoqda. Xususan, biz Yevropa bilan barqaror, uzoq muddatli hamkorlikka intilmoqdamiz. “O'zmetkombinat” AJda ishlab chiqarilayotgan armaturalar allaqachon Yevropa davlatlarida (Latviya, Litva va Shveysiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya, Polsha va Germaniyada) eksport sertifikatidan o'tgan.

Mahsulotlarimizga nafaqat ichki bozorda, balki xorijda ham qiziqish ortib borayotganini quyidagi raqamlar ham ko'rsatib turibdi. Joriy yilning o'tgan yetti oyida kombinat 79,2 million dollarlik mahsulot eksport qildi. O'tgan yilga nisbatan o'sish

sur'ati 189,3 foizni tashkil etdi. Korxonamizning po'lat mahsulotlari Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya, Belarus, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi mamlakatlarga, shuningdek, Yevropa davlatlariga jo'natilmoqda. Mutaxassislarimiz yangi bozorlarni o'zlashtirishda davom etmoqda.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. Yil boshidan buyon kombinatda jami 509,9 mlrd. so'm (100,1 foiz) mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 302,7 foizni tashkil etdi.

Mintaqada yirik po'lat ishlab chiqaruvchi korxonalar sifatida “O'zmetkombinat” AJ o'z quvvatlarini oshirib, mahsulot turlarini kengaytirmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish loyihalariga katta mablag'lar yo'naltirilmoqda. Yirik loyihalarining amalga oshirilishi ishlab chiqarish hajmi va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini sezilarli darajada oshirayapti. Bu mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, valyuta mablag'larini tejash va yangi ish o'rinlari yaratish hisobiga aholi bandligi darajasini oshirish imkonini bermoqda.

Qadrli metallurklar, ishlab chiqarish faxriylari, hurmatli bekobodliklar!

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni bilan sizlarni samimiy tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad tilayman!

Har bir oilaga farovonlik, bayramona kayfiyat, mustaqil O'zbekiston Respublikasi farovonligi yo'lidagi ishlaringizda muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

Rashid PIRMATOV,
“O'zmetkombinat” AJ
Boshqaruvi raisi – bosh direktori.

BUGUNGI SONDA:

KORRUPSIYA
Jamiyat rivojining kushandasi 4

SANA
Yuqori sifatli po'lat eritilmoqda 6

XABARDORMISIZ?
Korxonalar orasida eng yaxshilardan biri bo'lgan 7

SUD MAJLISIDA
Huquqbuzarlar jazolandi 8

SO'RAGAN EDINGIZ
Foydalanilmagan ta'til puli beriladimi? 9

SALOMATLIK
Sog'liqni saqlashda yangi strategiya 10

SPORT
Uy o'yinlari Olmaliqda o'tkaziladi 11

TAFAKKUR
Vatan tarkini bir nafas aylama! 12

YANGI HAYOT SARI, YANGI O'ZBEKISTON NOMI BILAN!

QALBLARDA ISTIQLOL SHUKUHI



Mana yurtimiz yana bayram og'ushida. Mamlakatimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqea - O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgan kunning o'ttiz ikki yilligini nishonlamoqdamiz. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori davlat bayramini munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish uchun ajoyib rag'bat bo'ldi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida intilib, orziqib kutgan, haqiqatdan barchamiz uchun eng ulug', eng aziz bayram bo'lmish mustaqillik kuni barcha joylarda bo'lgani kabi kombinatimizda ham tantanalar bilan kutib olinmoqda.

"O'zmetkombinat" AJda Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlab "Yangi hayot sari, Yangi O'zbekiston nomi bilan!" shiori ostida Bir-

lashgan kasaba uyushma qo'mitasi kombinat rahbariyati bilan hamkorlikda tadbirlarni tashkil etmoqda.

28-avgust kuni kombinat vakillari ko'p yillar metallurglar jamoasida ishlagan bir guruh mehnat faxriylarining uylariga tashrif buyurishdi. Faxriylarimiz mehmonlarni samimiy va xursandchilik bilan kutib olishdi. Do'stona suhbat davomida faxriylar o'tgan davrlarni, korxonani,

XIMICH sexidan kombinat ijroiya apparati yonidagi maydongacha bo'lgan masofada ishchi-xodimlar o'rtasida marafon tashkil etildi. Marafon ikki yosh toifasida - 35 yoshgacha va 35 yoshdan kattalar o'rtasida o'tkazildi. Musobaqaning g'olib va sovrindorlariga qimmatbaho sovg'alar va diplomlar topshirildi.

29-avgust kuni Metallurglar madaniyat saroyida yana bir bayram tadbiri tashkil qilindi. Unda kombinatning rahbar va yetakchi mutaxassisleri, Vatanimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgan metallurglar, ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirok etishdi. Tadbirda mehnatda hamkasblariga namuna ko'rsatib ishlab kelayotgan bir guruh metallurglarga qimmatbaho sovg'alar, faxriy yorliqlar, gullar topshirildi.

Metallurglar madaniyat saroyi badiiy havaskorlik jamoalarining bayram konsert dasturi tantanali tadbirga o'zgacha fayz va yuqori kayfiyat bag'ishladi.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz munosabati bilan kombinatda yana bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda.



mehnat faoliyatlarini davrini yodga olishdi. Bu tashrif chog'ida faxriylarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, bayram arafasida Metallurglar madaniyat saroyi ijodiy jamoalari tomonidan kombinat sanatoriy-profilaktoriysida hamda "Sahovat" uyida bayram konsertlari namoyish etildi.

Mustaqillik bayramiga bag'ishlab



Ko'p millatli xalqimiz shu kunlarda Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida butunlay yangi davrni boshlab bergan unutilmas tarixiy voqea - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik sanasini baland ruh va ko'tarinki kayfiyat bilan nishonlash uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

MUSTAQILLIK - BUYUK NE'MAT

Jonajon Vatanimiz - O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganiga yaqinda 32 yil to'ladi. Mustaqillik hurriyatparvar ajdodlarimizning asriy orzusini, xalqimizning tenglar ichra teng bo'lish huquqini yuzaga chiqardi, milliy o'zligimiz, qaddimiz va qadrimizni tikladi.

Mustaqillik yillarida tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analарimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi.

Istiqlol tufayli ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni ochildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi,

xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g'ayrati, azmu shijoati ila vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz - erkin va farovon kelajagimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etmoqdamiz.

Mustaqillik yo'li tekis, ravon emas. Unga erishish juda qiyin. Mustaqillikni mustahkamlash esa undan ham murakkab. Biz hozir ana shu murakkab, ayni paytda o'ta mas'uliyatli vazifani bajarimoqdamiz. Eng muhimi, bugun barcha vatandoshlarimiz muqaddas tuyg'u bo'lgan mustaqillik ne'matlaridan bahramand bo'lishmoqda. Bu yo'lda barchamiz yelkama-yelka bo'lib, yanada jiplashsa olsakkina mazkur fenomen hodisa uchun jon fido qilgan millatparvarlarimiz, istiqlolchilarimiz ruhi shod bo'ladi, kelajak uchun, milliy taraqqiyotimiz uchun esa mustahkam poydevor qurgan bo'lamiz.

Hasanboy SHOKIROV.

SIROJIDDIN SAYYID
O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI

VATAN DESAM...

*Bu diyorning ayvonlari nurga talosh,
Bu diyorning kayvonisi oyu quyosh.
Vatan desam ko'zimda yosh, yuzimda yosh,
Ko'zga surtay nonlarini, nonlarini.*

*Tiriklikning zahmatlari, taqdirlari,
Hayotining bor hikmat ham tadbirlari,
Ey, onamning tuproqqina tandirlari,
Isitgansiz jonlarini, jonlarini.*

*Kim Vatanni zar to'niga yeng etmishdir,
Kim bag'rini osmonlarday keng etmishdir.
Yaratganning o'zi bugun teng etmishdir
Asrlarga onlarini, onlarini.*

*Bir suvoriy kelmoqdadir — Boburmi yo?
Hirotmi yo, Hindistonmi yoki Ko'nyo,
Ko'rib keldi, bundan so'ng ham ko'rsin dunyo
Sultonlari, xonlarini, xonlarini.*

*Bu diyorning ayvonlari nurga talosh,
Bu diyorning kayvonisi oyu quyosh,
Vatan desam ko'zimda yosh, yuzimda yosh,
Ko'zga surtay nonlarini, nonlarini.*

*Nechun o'tmoq hasad ekib umrlarga,
Dilni o'rab g'araz, riyo - ko'mirlarga?
Havas qilib yashang ulug' Temurlarga,
El bilgaydir shonlarini, shonlarini.*

IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARI BARQAROR

O'zbekiston Respublikasida qora metallurgiyani rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati respublikada yetakchi qora metallurgiya korxonasi. O'zbekistonning mustaqillik yillarida korxonalar rivojlanib, yildan yilga o'z quvvatlarini oshirib kelmoqda. Ishlab chiqarishning uzluksiz rekonstruksiya va modernizatsiyasi qilinishi, texnik qayta jihozlanishi yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon beradi. Kombinatimiz respublikaning sanoat korxonalariga va qurilish industriyasiga mahsulotlar yetkazib beradi, shuningdek, eksportga ham jo'natadi.

Barcha mahsulotlar muvofiqlik sertifikatlariga ega. Sifat menejmenti tizimi Milliy va Xalqaro sertifikat tizimida sertifikatlangan. "Management Certification" xalqaro sertifikatlashtirish tashkiloti tomonidan kombinatga ISO 50001:2018 va EN ISO 9001:2015 xalqaro standartlari bo'yicha sertifikatlar berilgan.

Ta'kidlash joizki, oxirgi besh yil davomida kombinatda investitsiya dasturi doirasida qator salmoqli loyihalar amalga oshirildi.

Jumladan, 2018-yilda Janubiy Koreyaning "POSCO DAEWOO" kompaniyasi ishtirokida ferroqotishma ishlab chiqarish sexi foydalanishga topshirildi. 2019-yilda Navli prokat sexida sim blokini o'rnatishi bilan "300" standa katanka ishlab chiqarish tashkil etildi. 2022-yilda yuqori omli koks ishlab chiqarish uchastkasi foydalanishga topshirildi. 2022-yilda temir-beton konstruksiyalar uchun termomexanika usulda mustahkamlangan, mustahkamligi esa A500÷A800 sinfiga mansub bo'lgan armaturani ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatini uzoq muddatli rivojlantirish dasturi doirasida 2024-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan Quyuv-prokat majmuasini qurish bo'yicha ishlar ayni paytda jadal olib borilmoqda. Mazkur yirik investitsion loyiha amalga oshirilishi bilan kombinatning ishlab chiqarish quvvati ikki barobarga oshadi.

Metallurglarning mehnat jamoasi barcha vazifalarni hamkorlikda yuqori samaradorlik bilan bajarishga intilmoqda. Ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish rentabel-



ligini oshirish eng muhim ustuvor vazifadir.

"O'zmetkombinat" AJ joriy yilning yetti oyi davomidagi faoliyati yakunlariga ko'ra, yuksak marralarni qo'lga kiritdi. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu davrda 4,4 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, bu o'tgan uch yildagi o'rtacha ko'rsatkichdan 106,1 foizga ko'pdir. Metall prokati ishlab chiqarish 494,6 ming tonnani, shu jumladan po'lat zoldirlar ishlab chiqarish 112,2 ming tonnani tashkil etdi. 1 625 tonna po'latdan sirlangan idishlar, 1 818 tonna rangli metallar, 4 121 tonna issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar, 11 974 tonna ferroqotishmalar ishlab chiqarildi.

Mahsulotlarimizga xorij davlatlarida qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yetti oyida Yevropa davlatlariga (Litva, Turkiya, Bolgariya, Latviya, Belarus) 16,4 mln. dollarlik mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yetti oyi davomida korxonada jami 509,9 milliard so'mlik (100,1 foiz) mahsulot ishlab chiqarildi. O'sish sur'ati 302,7 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, A-500 sinfiga mansub armatura 442,1 milliard so'm qiymatida o'zlashtirildi. Umuman, joriy yilning yetti oyida jami 47,1 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi. Belgilangan prognoz 100,2 foizga bajarildi.

Kombinatda amalga oshirilayotgan tizimli ishlar katta hajmdagi yuqori sifatli eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishining garovidir.

Bugun "O'zmetkombinat" AJ rivolanagan ishlab



chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilma-ga ega bo'lib, yetakchi metallurgiya korxonalariga qatoridan munosib o'rin egallab, O'zbekistonning yirik sanoat gigantlaridan biriga aylandi.

Bu yutuqlarning barchasi bekobodlik metallurglarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamladi. Eng muhimi, ular xalqimiz farovonligi va turmush darajasini oshirishga hissa qo'shadi.

Shahboz MAHMUDOV,
kombinatning reja-iqtisodiyot
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

EKSPORT GEOGRAFIYASI KENGAYMOQDA

Har bir korxonalar uchun jahon bozorlarida mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hamda yangi bozorlarga kirib borish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan korxonalarda jahon andozalariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratiladi.

"O'zmetkombinat" AJ ham turli mahsulotlarini eksportga chiqarib kelmoqda. Jumladan Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexida tayyorlanayotgan sirlangan idishlarning ham xorijdagi iste'molchilari safi kengayib bormoqda. Sirlangan idishlar Bolgariya, Chexiya, Latviya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon va Turkmaniston davlatlariga eksport qilinmoqda.

Joriy yilning o'tgan 7 oyi mobaynida kombinatimiz tomonidan jami 500 ming AQSH dollari miqdoridagi sirlangan po'lat idishlar eksport qilindi. 2023-yilning 2-yarim yilligida yangi bozorlar - Polsha va Germaniya davlatlariga eksport qilish rejalashtirilgan.

"O'zmetkombinat" AJda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Jumladan ayni kunlarda iste'molchilarni kuz-qish mavsumida issiqlik bilan sifatli va barqaror ta'minlash maqsadida "2023-2024-yillar kuz-qish mavsumi uchun energiya tarmoqlari issiq suv quvurlarini ta'mirlash" jadvaliga asosan Energetika sexi tomonidan ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

KUZ-QISH MAVSUMIGA TARADDUD

Ushbu ta'mirlash ishlariga Energetika tarmoqlarini ta'mirlash sexi, Avtotransport hamda Temir yo'l xizmatlari jalb qilindi.

Hozirgi kunda, 1-sonli qozonxonaning "Harakat 2000G" rusumli suv isitish qozoni to'liq kapital ta'mirlandi, yana bitta suv isitish qozonining ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda. 2-,3-,4-sonli qozonxonalarning nasoslari va issiq suv almashinuvchi qurilmalarini ta'mirlash ishlari olib borilyapti.

Bundan tashqari, Zoldir prokat sexi kollektoridan 5-Nazorat o'tish joyigacha va Avtotransport xizmatigacha bo'lgan issiq suv quvurlari ta'mirlandi. Energetika tarmoqlarini ta'mirlash sexidan Qurilish-montaj bo'linmasi omborigacha bo'lgan issiq suv quvurlarini demontaj va montaj qilish ishlari bajarilyapti.

Shuningdek, tasdiqlangan jadvalga muvofiq kombinat markaziy laboratoriyasidan ENSga qarashli 3-sonli suvni kimyoviy tozalash uchastkasigacha, harbiy qismdan Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexining Frita uchastkasigacha bo'lgan issiq suv quvurlarini ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

Mavsumga tayyorgarlik borasida olib borilgan tizimli ishlar natijasida kombinatning tarkibiy bo'linmalarini issiqlik va issiq suv bilan uzluksiz ta'minlashda mavjud muammolarni bartaraf qilishga hamda bu borada yuzaga kelish mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilyapti.

SIFATLI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRILMOQDA

Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexi ma'lum muddat to'xtalishlardan so'ng yana ishlab chiqarish faoliyatini boshladi. Ushbu vaqt oralig'ida ta'mirtalab texnikalar to'liq ta'mirlandi va sexning bir maromda ishlashiga erishildi.

Sexda mineral vata, plitalar, tikilgan matlar kabi jahon andozalari talablariga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda iste'molchilardan kelib tushgan buyurtmalarni yetkazib berish uchun sex ishchi-xodimlari jonbozlik ko'rsatib mehnat qilishmoqda.

JAMIYAT RIVOJINING KUSHANDASI

BUGUNGI KUNDA JAHON HAMJAMIYATI OLDIDA KORRUPSIYA VA MANFAATLAR TO'QNASHUVI DAVLATLAR RIVOJLANISHIGA, IQTISODIY, SIYOSIY, MA'NAVIY YUKSALISHIGA TO'SQINLIK QILAYOTGAN SALBIY ILLATLAR SIFATIDA PAYDO BO'LDI. PREZIDENT SH. MIRZIYOYEV TA'KIDLAGANLARIDEK, "KORRUPSIYANING OLDINI OLMASAK, HAQIQIY ISHBILARMONLIK VA INVESTITSIYA MUHITINI YARATIB BO'LMAYDI, UMUMAN, JAMIYATNING BIRORTA TARMOG'I RIVOJLANMAYDI". HAQIQATAN KORRUPSIYAVIY JINOYATLAR DAVLATNING RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK QILADI, SHUNINGDEK, XALQNING HOKIMIYAT ORGANLARIGA BO'LGAN ISHONCHINI SUSAYTIRADI.



Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardan o'q korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tartibga solinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foidalanishi, xuddi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir".

Korrupsiya jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat bo'lib, bu illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, qarindosh urug'chilik, mahalliychilik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi yashnashi uchun qulay shart - sharoit yaratib beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shveysiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Kombinatda qonunning samarali ijrosini ta'minlash, barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarining barcha yo'nalishlarida kor-

rupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar dasturini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida kombinatda mavjud ichki idoraviy hujjatlarni amalda tadbiriq qilish, ishchi-xodimlar huquqiy ongini oshirish ustida tizimli tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Kombinat ishchi-xodimlari faol ishtirokini kuchaytirish uchun ma'lumotlarni erkin olish imkoniyatini yaratish, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish va oldini olish, korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashning aniq tizimini amaliyotda qo'llash uchun tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, kombinat har bir tarkibiy va hududiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda ishlab chiqarishning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, korrupsiya holatlari haqida xabar

berishning yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish hamda qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va baholashning real, hayotiy, xolis hamda shaffof indikatorlarini belgilash ham muhim. Bularning barchasi jamiyatimizda korrupsiya degan illatning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiyaning har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh-urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

Sanjar MADIYAROV,
Boshqaruv raisining
transformatsiya bo'yicha
birinchi orinbosari – rivojlanish
va sifat bo'yicha direktor.

OBODLIK BOR JOYDA BARAKA BO'LADI

Bugun biz erishgan yuksak marralar, ruh va dil tantanasi, ozod Vatanimiz manzaralari, avvalo, istiqlool sharofatidir. Shu bois, xalqimiz har yili mustaqillik bayramini o'zgacha shukuh, mehr-muhabbat, xush kayfiyat bilan kutib oladi.



Bu yil ham mamlakatimizda Istiqloolimizning shonli sanasini munosib qarshilash uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishi bilan o'tkazilayotgan "Obodonlashtirish oyligida" kombinatimizda ham keng ko'lamli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari qizg'in tus oldi.

Obodonlashtirish oyligida kombinat hududlari supirib-sidirilib, sanoat va maishiy chiqindilardan to'zalandi. Daraxtlar butalib, oqlanib, shakl berildi, gullar ekilib, sug'orilib parvarishlandi. Bundan tashqari, yashil hududlardagi maysalar o'rildi va begona o'tlardan to'zalandi. Bu ishlarni ayni kunlarda ham davom ettirayotgan Klining xizmati ishchi-xodimlari oylikda jonbozlik ko'rsatishdi.



Shuningdek, tarkibiy bo'linmalar bino va inshootlarning tashqi qiyofasini yaxshilash, ularning hududi va tutash maydonlarini tartibga keltirildi, tashqi yoritish elektr tarmoqlari, asbob-uskunalar va inshootlarining soz holatdali nazorat qilinib, texnik ko'rikdan o'tkazildi.

X. VALIBEKOV.



E'TIBOR VA E'ZUZ

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar filiali tomonidan Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayramiga bag'ishlab kombinat faxriylari o'rtasida bir qator tadbirlar tashkil etildi. 24-avgust kuni ko'p yillar kombinatda sidqidildan mehnat qilib, pensiyaga chiqqan faxriylar bayram dasturxoniga taklif etildi.

Bekobod shahar, "O'zmetkombinat" AJ hamda faxriylar Kengashi rahbarlari "Baxt uyi"ga yig'ilganlarni mustaqillik bayrami bilan tabriklab, o'zlarining samimiy tilaklarini bildirishdi.

Faxriylarning kayfiyatlarini yanada ko'tarish maqsadida Metallurglar madaniyat saroyi badiiy havaskorlari tomonidan kuy va qo'shiqlar, raqslar

ijro etildi.

Shuningdek, bayram munosabati bilan kombinatimiz mehnat faxriylar o'rtasida sportni yanada ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida sport musobaqalari ham tashkil etildi. Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar filiali tomonidan tashkillashtirilgan tennis, katta tennis hamda shaxmat bo'yicha musobaqalar ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tdi.

Qizg'in va do'stona ruhda o'tgan bahslarda sovrinli o'rinni egallaganlarga Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod shahar filiali tomonidan medal, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

VATANPARVARLIKNING YORQIN TIMSOLI

Yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan, kubraviya ta'limoti asoschisi Najmiddin Kubro haqiqiy Vatan himoyachisi qanday bo'lishining yorqin misoli bo'la oladi. Najmiddin Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da'vat etdi. Bu yo'lda o'zi boshqalarga o'rnak bo'ldi.

Mo'g'ullar hukmdori Chingizxon bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etgan bo'lishiga qaramay bu munosabatlar oxir-oqibat fojiali tugaydi. Ikki davlat o'rtasida urush boshlanadi. Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshohlar davlatiga yurish qilib qisqa muddatda (1218-1221) bu davlat hududini bosib oladi. Mo'g'ullar qurgan tuzoqlarga bir necha marta tushib, harbiy kuchlarining anchagina qismidan ajralgan Xorazmshoh Muhammad o'z yurtini, poytaxti Gurganch shahrini tashlab ketadi.

Shahar aholisi, himoyasiz, yetakchilik qiladigan sardorsiz qoladi. Shunday og'ir vaziyatda 76 yoshli Najmiddin Kubro shaharni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi:

– Sizlar har biringiz o'z yurtinigizga boring, o'z joningizni asrash payida bo'ling!

As'hob shayxga iltimos qilib deydi:

– Ot-ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo'lardi. Bunga shayx Najmiddin Kubro rozi bo'lmaydi. Shayx shahar mudofaasini tashkil etish bilangina cheklanmay, qo'lga qilich olib jang qiladi. Ancha vaqtgacha mo'g'ullar shahar himoyachilarining qarshiligini yenga olmaydilar. Shunda ular hiyla-nayrang ishlatish, sotqinlar ko'magidan foydalanish yo'lga o'tadilar va biladilarki shahar mudofaasi boshida shayx turibdi, darrov shayxning oldiga elchilar jo'natib biz tomonga o'ting sizga omonlik va boyluk ato qilamiz deyдилar.

Shaharni tashlab chiqish imkoni berilsa-da, Vatanni o'z jonidan ustun bilgan Najmiddin Kubro elchilar tak-



lifini rad etib, bosqinchilarga qarshi jangga kiradi.

Mo'g'ullar hali biron yerda bunchalik qattiq qarshilikka duch kelmagan edi, hali biron joyda mo'g'ul askarlari bunchalik ko'p qirg'in qilinmagan edi. Dahshatli qirg'inbarot Gurganch fojiasi yetti oy davom etadi. Son jihatdan ustun bo'lgan dushman mashaqqatlar va hisobsiz qurbonlar evaziga g'alabaga erishadi. Qo'lida qurol ushlagan majoli qolmagan gurganchliklar ilojisizlikdan taslim bo'ladi.

Jarohatlangan Shayx Najmiddin Kubro holdan toyib, kuchi ketayot-

ganini sezsa ham, jangni to'xtatmaydi, dushman bayrog'ini g'azab bilan mahkam ushlab oladi-da, shu holatda jon beradi. Deydilarkim, vafotidan keyin o'nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo'rg'a ajratib olgan.

Ulug' shayx va donishmand insonning bu qahramonligi, jasorati dushmani ham hayratga solgan. Bu ish avlodlarga ibrat bo'ldi, xalq orasida afsonaga aylanib ketdi. Buyuk bobolarimizning vatanparvarliklari biz avlodlar uchun go'zal o'rnakdir.

Abdusalom ABDULLYAEV.



PENSIYAGA KUZATILDI

Elektrda po'lat eritish sexi boshlig'i Isroil Nazarov tantanali ravishda pensiyaga kuzatildi.

Isroil Nazarov 1991-yilda Qozog'istonning Qarag'anda metallurgiya zavodi qoshidagi davlat institutini muvaffaqiyatli tamomlagan. Shu yili "O'zmetkombinat" AJning Elektrda po'lat eritish sexida po'lat quyuvchilar ustasi yordamchisi vazifasida o'z ish faoliyatini boshladi.

1999-yildan pech oralig'i uchastkasi po'lat erituvchilar ustasi yordamchisi, 2000-yildan smena ustasi, 2004-yildan smena katta ustasi, 2014-yildan ishlab chiqarish bo'yicha sex boshlig'i o'rinbosari vazifalarida mehnat qilgan.

2020-yildan buyon EPES boshlig'i lavozimida mehnat qilib kelgan. 32 yillik mehnat tajribasiga ega bo'lgan Isroil Nazarov o'zining samarali mehnat faoliyati mobaynida sexning ishlab chiqarishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelgan. Ko'plab shogirdlar yetishtirib chiqargan.

Pensiyaga kuzatish tadbirida "O'zmetkombinat" AJning Boshqaruv raisi-bosh direktori Rashid Pirmatov, Boshqaruv raisining umumiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Akmal Sharipov, Texnik direktor Roman Garayev va bir qator tarkibiy bo'linmalar boshliqlari hamda jamoadoshlari o'zlarining samimiy va ezgu tilaklarini bildirdilar. Isroil Nazarovga milliylikimiz ramzi chopon kiydirishib, esdalik sovg'alarini topshirdilar.

YOSHLAR UCHUN IBRAT

Kombinatda 35 yil mehnat qilgan Burxon Otaxonov qerda ishlamasin o'z vazifasini sidqidildan bajarib hamkasblarining hurmatini qozonib keldi. Shuningdek, u sportchi va murabbiy sifatida nafaqat kombinatda, balki mamlakatimizda ham e'tibor qozongan.

Burxon aka metallurklar sport-sog'lomlashtirish majmuasida murabbiy bo'lib ish boshlagan.

Uning sa'y-harakatlari bilan metallurklar sport-sog'lomlashtirish majmuasida 1988-yil tosh ko'tarish to'garagi tashkil etilgan edi. Shundan buyon sportning bu turi bekobodliklar, metallurklar hayotida o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Sportning bu turi bo'yicha nafaqat mamlakatimizda, balki jahonga tanilgan sportchilar ham yetishib chiqdi.

Burxon Otaxonov 2005-yildan O'zbekiston tosh ko'tarish va bahodirlar o'yini federatsiyasi a'zosi. U ilk bor 2007-yil Ukraina davlatining Zaporozhe shahrida faxriylar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida sovrinli uchinchi o'rinni egallagan. Bir necha marotaba O'zbekiston chempioni bo'lgan.

2010-yilgacha 8 yil mobaynida kombinatning tennis korti direktori bo'lib ishlaydi. Keyinchalik Klining xizmatida ham ishlash bilan birga yoshlarga sport va ishlab chiqarish sohalari bo'yicha murabbiylik qilib keldi.

Uning shogirdi Hasan Abdurahmonov 2018-



yil Buxoro shahrida bo'lib o'tgan tosh ko'tarish bo'yicha jahon chempionatida oltin medal sohibi bo'lgan. Bundan tashqari Abdullajon Ablakimov, Hayot Hasanov, Baxtiyor Jo'raboev kabi shogirdlari ham bir necha marotaba jahon va mamlakatimiz chempionatlarida qatnashib, nufuzli o'rinlarni olganlar.

Burxon Otaxonov yaqinda 60 yoshga to'ldi. Hamkasblari yaqinda uni tantanali ravishda pensiyaga kuzatishdi.

Namunali oila boshlig'i, ko'pchilikning ustoz, ajoyib inson Burxon Otaxonovning hayoti, mehnat va sportdagi faoliyati yoshlar uchun ibrat. Biz hamkasblari va shogirdlari undan minnatdormiz.

Hamkasblari va shogirdlari.

METALLURGLARGA YANA BIR QULAYLIK

Metallurglarga keng qulaylik yaratish maqsadida, Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan kombinatning Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexining nazoarat o'tish joyi ro'parasida yana bir yangi zamonaviy "KASABA MARKET #3" do'koni ochilib, o'z ish faoliyatini boshladi.

"KASABA MARKET #3" do'konining qurilishi kombinat boshqaruvi bilan hamkorlikda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshirildi.

Ushbu do'kondan metallurklar oilasi uchun kerakli bo'lgan ko'plab turdagi oziq-ovqat va boshqa xildagi mahsulotlarni naqd pul, plastik va oylik maosh hisobidan xarid qilishlari mumkin.

MAKTAB YARMARKALARI TASHKIL ETILDI

Yangi o'quv yili boshlanishi oldidan metallurglarning maktab yoshidagi farzandlarini asosiy turdagi o'quv qurollari bilan ta'minlash maqsadida kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasiga qarashli 3 ta "KASABA MARKET" da maktab yarmarkalari tashkil etildi.

Ushbu do'konlardan 150 turdan ortiq sifatli o'quv qurollari hamda 41 xildagi sumkalarini arzon narxlarda naqd pul, plastik va oylik maoshi hisobidan xarid qilish mumkin.

B.SODIROV.

ELEKTRDA PO'LAT ERITISH SEXIDA

YUQORI SIFATLI PO'LAT ERITILMOQDA

BUNDAN 45 YIL MUQADDAM, 1978-YIL 17-AVGUST KUNI ELEKTRDA PO'LAT ERITISH SEXI ISHGA TUSHIRILGAN EDI. DASTLAB SEXNING YILIGA 250 MING TONNA PO'LAT ERITISH QUUVATIGA EGA BO'LGAN BIRINCHI NAVBATI ISHGA TUSHIRILDI. BIRINCHI RAQAMLI ELEKTR PECHI TAYYORLANAYOTGAN MAHSULOTNI UZLUKSIZ QUYISH QURILMASI, PODSTANSIYA VA KISLOROD-KOMPRESSOR SEXI MAJMUASI BILAN BIRGA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.

1979-yilning sentabr oyigacha yana ikkita pech uzluksiz po'lat quyish mashinalari bilan birga ishga tushdi. 2002-yilda yiliga 750 ming tonna po'lat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "DSP-100 UMK" po'lat eritish pechi va "Pech-kovsh" qurilmasini foydalanishga topshirishi O'zbekistonda po'lat eritishdagi yangi bosqich bo'ldi. Bu pech transformatorining almashtirilishi asosida "DSP-100 UMK" elektrda po'lat eritish pechi modernizatsiya qilindi. Pechning gaz tozalash qurilmasi va gazni haydab chiqaruvchi trakt rekonstruksiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Natijada sexda sezilarli darajada energiya tejashga erishildi, po'lat sifati yaxshilandi va atmosferaga chiqindilarning chiqishi kamaydi.

Suyuq po'latni vakuumlash uchun qurilma qurilishi va po'latga kompleks ishlov berish agregatining rekonstruksiya qilinishi bilan kombinatning ishlab chiqarish quvvatlari sezilarli kengaydi.

EPESni haqli ravishda korxonaga yuragi, deyishadi. Bu yerda har kuni jahon andozalari talablariga javob beradigan sifatli po'lat eritiladi. EPESning ishlab chiqarish quvvati yiliga 950 ming tonnani tashkil etadi.

O'tgan 45 yilda elektrda po'lat erituvchilar og'ir va sharaflari yo'lni bosib o'tdilar. O'tgan yillar davomida sexning ishlab chiqarish hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, jamoa yangi quvvatlarni o'zlashtirganlari, mahsulot tayyorlash turlarini ko'paytirganliklari respublika iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa bo'ldi.

Mustaqillik yillarida "O'zmetkombinat" AJda mehnatda erishgan yutuqlari uchun metallurklar orden va medallar, turli faxriy unvonlar bilan taqdirlanishdi. Ular orasida ikki kishi "O'zbekiston qahramoni"dek mamlakatimizning eng



Ma'ruf ALLAMURODOV.



Elektrda po'lat eritish sexida uzoq yillar mobaynida samarali mehnat qilayotgan ishchilardan biri Hikmat Hasanovdir. U 21 yoshida 1985-yilda Elektrda po'lat eritish

KASBI – FAXRI

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbai, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir.

Ergashboy Toliboyev ham o'zining 38 yillik mehnat faoliyatini metallurgiya sohasiga bag'ishlagan fidoyi insonlardan biri hisoblanadi.

Elektrda po'lat eritish sexi kovshchisi vazifasida ishlab kelayotgan Ergashboy aka o'tgan yillar davomida malakali va tajribali ishchiga aylandi. Hozirgi kunda ustoz darajasiga yetgan.

– Har bir kasbning o'ziga yarasha qiyinchilik va mas'uliyatli tomonlari bor. Asosiysi ustozlardan o'rgangan bilim va ko'nikmalarimizni to'g'ri bajarsangiz ko'zlagan natijaga erishasiz. Qolaversa sevgan kasbi bilan

shug'ullanish odamga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi, – deydi Ergashboy Toliboyev.



yuksak unvoni bilan mukofotlandi. Ularning har ikkalasi ham EPESdan ekanligi bu sexning nafaqat kombinatda, balki mamlakatda ham qanday e'tiborga sazovor ekanligidan dalolat beradi.

2003-yilda sex operatori Abdurahmon Abdurazzoqov, 2009-yili Elektrda po'lat eritish sexining po'lat erituvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi Olim To'ychiyevga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirishda munosib hissalari qo'shgani, uzoq yillik qahramonona mehnatlari uchun "Oltin Yulduz" medali bilan taqdirlanib, "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldilar.

Bugun sexda po'lat eritishning zamonaviy texnologiyalari va g'oyalari o'zlashtirib borilyapti. Natijada mahsulot ishlab chiqarish ortishi bilan birga, po'lat eritish vaqti kamayib, jahon standartining talablariga muvofiq yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarilmoqda.

MEHNAT QILGAN
ELDA AZIZ

O'zining 36 yillik mehnatini "O'zmetkombinat" AJning Elektrda po'lat eritish sexiga bag'ishlagan Mahmud Mirboboyev o'tgan yillar davomida sexning mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga munosib hissasini qo'shgan po'lat quyuvchilar sarasiga kiradi. Uning fikricha – har bir inson kasbini sevsa va ardoqlasa albatta har qanday vaziyatda ham o'z ishini sharaf bilan bajaradi.

– Po'lat quyuvchilik kasbi mashaqqatli va sharaflari kasblardan biri. Ishga kelgan yillarimda biroz qiynalganman, – deydi tajribali po'lat quyuvchi. – Lekin mana shunday ahil jamoa bilan birga ishlab, qiyinchiliklarni yengib, tajriba orttirdim va ko'plab shogirdlar yetishtirib chiqardim. Mana shu kasb bilan halol mehnat qilib ro'zg'or yuritayotganimdan xursandman.

Mahmud Mirboboyevning maqsadi o'z mehnati bilan jonajon O'zbekistonimizning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishdir. Uning ezgu orzusi amalga oshishiga muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

HAMKASBLARIGA
O'RNAK

G'ulom Haydarov 1988-yilda kombinatimizning yordamchi ho'jaligida operator vazifasida o'z ish faoliyatini boshlagan. Oradan bir yil o'tib Elektrda po'lat eritish sexida po'lat erituvchi, 2001-yildan buyon shu sexda kovshchi vazifasida mehnat qilib kelmoqda.

Rahbarlar hamda hamkasblari G'ulom Haydarovni kasbining ustasi deb e'tirof etishadi. U 35 yillik mehnat faoliyati davomida ko'plab shogirdlar yetishtirib chiqargan. Ishlab chiqarish jaryonidagi har xil vaziyatlarda o'zining mehnati va tashabbuslari bilan jamoadoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Elektrda po'lat eritish sexida mana shunday fidoyi ishchilar mehnat qilayotgan ekan oldimizga qo'yilgan rejalarni munosib ado etamiz, – deyishadi uning jamoadoshlari.

"O'ZMETKOMBINAT" AJNING 80 YILLIGI OLDIDAN

KORXONALAR ORASIDA ENG YAXSHILARDAN BIRI BO'LGAN



O'tgan asrning 60-yillarida O'zbekiston metallurgiya zavodi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sobiq ittifoq qora metallurgiya vazirligi korxonalar orasida eng yaxshilardan biri edi. Eng katta yutuq 1962-yil turdosh korxonalar ichida birinchilardan bo'lib ishga tushgan eritilgan po'latni quyish mashinasi bo'lib (UNRS) uning afzalliklari juda katta bo'lgan.

Eritilgan po'latni quyish mashinasi eng avvalo og'ir qo'l mehnatini, ayniqsa, ayollar mehnatini yengillashtirgan. Uning ishga tushishi ilgari sifonlar yasash uchun ishlatilgan o'tga chidamli g'ishtlarni, "izlojnitsa" uchun ishlatilgan cho'yaning tejashga va quyish vaqtini sezilarli darajada kamaytirishga olib keldi, deb xotirlagan edi o'sha paytlarda marten sexining ilg'or ishchilaridan, xotin-qizlar orasida birinchilardan bo'lib kanava deb atalmish bo'limda fidokorona mehnat qilib nom qozongan, davlat mukofotiga sazovor bo'lgan Saida Karimova.

Zavodni qurishda, uni ishga tushirib, muntazam ishlab ketishida chetdan, asosan Rossiya, Ukrainadan ishchi, mutaxassislar kelib yordam berishgan bo'lsa, o'tgan asrning 60-70-yillari-

ga kelib, bizning ishchi-mutaxassislar chet mamlakatlarga - Hindiston, Misr, keyinroq Germaniya, Koreyaga borishib hamkasblariga ish o'rgatishgan. Ular orasida marten sexi ustasi, "Za metall" gazetasida muharrir o'rinbosari bo'lib ishlagan A.Sklyarov, usta Yu.Chixirnikov, zavod markaziy laboratoriyasida ko'p yillar boshliq bo'lib ishlagan F.G'afurov marten sexida yordamchi po'lat quyuvchilikdan zavod direktorigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan, R.Yusupov va boshqalar bo'lgan.

Korxonada mehnatkashlarining erishgan yutuqlari, albatta izziz qolmagan. Ilg'orlarning ilg'orlaridan po'lat eritish ustasi Hofiz G'aniyev, prokat sexining ustasi Said Nurutdinov, marten sexining metallni quyish bo'limi katta ustasi Asad aka Ergashevlar Mehnat Qahramoni unvoni, o'nlab metallurglar esa orden, medallar bilan taqdirlanganlar. Ular orasida po'lat erituvchilardan Bannob Mirzamatov, Anvar Tosholatov, Sherali Hamroqulov, prokatchilardan Shamsi Nurutdinov, Ro'zimat G'oyibnazarov, Ismoil Madaminov, Qurbonali Toshmatov, zavod bosh injeneri Aleksandr Grigorevich Salenek kabilar bor edi.

Zavodning jadal sur'atlar bilan o'sishi, yangi zamonaviy mashina, asbob-uskunalar bilan jihozlana borishi unda hlayotganlardan, na faqat shijoat bilan ishlashni, balki yetarli dara-jadagi kasbiy ilmni ham talab eta boshlagan. Bundan tashqari yoshlar soni ko'payib, shaharda yangidan-yangi korxonalar ishga tusha-yotgani yoshlarni kasb-hunar ilmlarini olishga majburlamoqda edi. Shu bois davr talabi, shaharda hech bo'lmasa ko'p tarmoqli texnikum ochilishini taqozo etmoqda edi. Zavod, shahar rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan 1959-yil Chirchiq sanoat texnikumining kechki bo'limi ochilgan. U sanoat kollejining, u paytda (GSPTU-43) keyinroq qurilish kollejining (u paytda 9-sonli maktab) binolarida faoliyat ko'rsatgan. 1961-yilga kelib o'sha paytda 10-son Lomonosov nomli maktab



binosida Bekobod sanoat texnikumi ochilib, bu shahar uchun katta voqea bo'lgan.

Texnikumning birinchi direktori etib Nikolay Ivanovich Makarov, ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari etib Anvar aka Haydarov tayinlangan. Texnikum o'qituvchilarining ko'pchiligi shahar maktablarida bir necha yillar ishlagan, o'z fanlari bo'yicha bilimdon, hurmat-izzatga ega bo'lgan kishilar edi. Maxsus fanlarni o'qitish uchun zavod muhandislari texnikumda ishlashga jalb qilingan.

Texnikumning kechki, sirtqi va kunduzgi bo'limlarini bitirganlardan ko'plari zavodning deyarli barcha sexlarida mehnat qilishdi. Ular texnikumda olgan bilimlarini ishga joriy qila borishib, jamoa orasida obro'e'tiborga erishib, sexlarda usta, katta usta, smena boshlig'i, hatto keyinroq sex boshlig'i lavozimigacha ko'tarilishgan. Ulardan Anatoliy Drannikov prokat sexi, Abduyusuf Abdullayev energota'mirlash sexi boshlig'i bo'lib ishlashgan.

O'sha davrdagi fan-texnika yutuqlari, metallurgiya sohasidagi yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga tadbiiq etilishi, ishchi va mutaxassislarning shijoati tufayli zavodimiz barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sobiq ittifoq qora metallurgiya korxonalar orasida oldingi o'rinlarga chiqib olgan edi.

YOZGI TA'TIL MAROQLI O'TDI

Yoz mavsumi ham nihoyasiga yetmoqda. O'quvchilarning yozgi ta'tilida ko'pchilik bolalar oromgohlarda mazza qilib dam olishdi.

Sirdaryo bo'yining so'lim go'shasida joylashgan "Metallurg" professional futbol klubiga qarashli akademiyaning "Zamonaviy maktabi" tasarrufidagi "Sohil Evolution" oromgohida ham bolalar yozgi ta'tillarini maroqli o'tkazdilar. Yoz mavsumida bu maskanda 600 nafarga yaqin o'g'il-qizlar oromgohda dam olib, hordiq chiqardilar. Bolajonlar yozgi ta'tilni esda qolar darajada o'tkazishdi. Ularning ko'ngilli dam olishlari uchun oromgohda turli madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, milliy o'yinlar, viktorinalar, turli ko'rik-tanlovlar bolalarning ta'til davrini maroqli tashkil etish uchun muntazam ravishda tashkil etildi.

Butun mavsum mobaynida bolalar har kuni badantarbiya mashqlari qilib, sun'iy hovuzda cho'milishlariga, futbol, shaxmat-shashka o'ynashlariga alohida e'tibor



qaratildi. "Sohil futbol kubogi" sport musobaqalari ham barchaga manzur bo'ldi. Bu mashg'ulotlar bolajonlarning sog'liklarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, bolajonlarning vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun oromgohda turli ko'ngilochar tan-



lovlar tashkil etildi.

Bolajonlar ingliz tili, robototexnika va kompyuter texnologiyalari to'garagida shug'ullandilar. Kutubxona ular xizmatida bo'ldi.

Bu oromgohda o'tgan kunlar bolajonlar xotirasida bir umrga muhrlanib qoladigan bo'ldi.

VAKILIMIZ
KO'RIK-TANLOV
G'OLIBI

Nurafshon shahrida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyati Kengashi tomonidan "Eng namunali boshlang'ich tashkilot" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tanlovning viloyat bosqichida tuman va shaharlarda namunali faoliyat olib borayotgan 40 ta boshlang'ich tashkilot vakillari qatnashib, turli nominatsiyalarda g'olib bo'lishdi.

Quvonarlisi ko'p yillardan buyon kombinatimizning metallurgiya uskunalarini ta'mirlash sexi chilingar-ta'mirchisi va sex kasaba qo'mitasi raisi sifatida samarali mehnat qilib kelayotgan Jo'shqin Egamberdiyev ham tanlovda faol ishtirok etib g'olib deb topildi. U Kengashning diplomi va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

OCHIQ SUD MAJLISIDA

HUQUQBUZARLIKKA
JAZO MUQARRAR

Inson umri davomida qandaydir xatolar qiladi. Gap xatoda emas, undan to'g'ri xulosa chiqarishda va xatoni takrorlamaslikda, albatta. 2023-yilning 25-may kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi tomonidan Ubaydulla Xayrovning (Ism-familiyalar o'zgartirilgan) ma'muriy ishi ko'rib chiqildi.

"O'zmetkombinat" Ajda haydovchi bo'lib ishlaydigan bu huquqbuzar 2023-yil 31-mart kuni XIMICH sexidan bir dona 71 990 so'mlik "Big-Beg" nomli qopni yashirin ravishda talon-taroj qilish maqsadida olib chiqib ketayotgan vaqtida harbiy qism xizmatchilari tomonidan ushlangan.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Ubaydulla Xayrov aybiga to'liq iqrorlik bildirdi. U joriy yil 31-mart kuni soat taxminan 07.30 larda ishga kelgan. Rahbariyat topshirig'i bilan XIMICH sexiga buyurtma asosida ishga yuborilgan. "KAMAZ" rusumli yuk avtomashinasiga qopga solingan

polietilen chiqindilarni yuklaydi. Ularni kombinat hududidan tashqariga olib chiqish uchun 2-sonli nazoratdan o'tish joyiga boradi. Bu joyda xizmatda bo'lgan harbiylar yuk avtomashinasini ziyraklik bilan nazoratdan o'tkazishadi. Tekshirish jara-yonida mashinadan hujjatlarda ko'rsatilmagan bir dona 71 990 so'mlik "Big-Beg" nomli qop borligini aniqlanadi.

Sudda huquqbuzar qilgan ishidan pushaymonligini, xato qilganligini, bu holat boshqa takrorlanmasligini aytib barchadan kechirim so'radi.

Barcha holatlarni o'rganib chiqib sud qaror qildi. Unga ko'ra huquqbuzarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solindi.

Arzimagan matoh uchun tashmachilikka qo'l urgan Ubaydulla Xayrovning bu qilmishi oqibatida yuzi shuvut bo'ldi. O'zi ham qilgan ishidan qattiq pushaymon. Bu ishi bir umr unga saboq bo'ldi.

Kombinatda olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlariga qaramay rangli metall parchalari va chiqindilarini keyinchalik yashirincha korxonada hududidan olib chiqib ketish uchun biror joyga yashirib qo'yish, ularni korxonada tashqarisiga noqonuniy olib chiqib ketish holatlari uchrab turibdi.

SIRI OSHKOR BO'LDI

Ana shunday holatlarning biri shu yil 6-mart kuni sodir bo'ldi. Shu kuni taxminan soat 06. 50 larda Madad Husanov (Ism-familiyalar o'zgartirilgan) "O'zmetkombinat" AJ hududida rangli metall parchalarini yashirin ravishda talon-taroj qilish maqsadida kiyim almashtirish xonasida saqlab kelayotganligi aniqlandi. U qilgan ishiga iqror bo'lganidan so'ng Bekobod shaharlararo Qo'riqlash bo'limi tomonidan ma'muriy bayonnoma tuzilgan.

Daliliy ashyo tariqasida olingan 3 kilogramm og'irlikdagi 11 dona 31 413 so'mlik rangli metall parchalari "O'zmetkombinat" AJga qaytarilib topshirildi.

2023-yil may oyining 25-kunida, jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi binosida, ochiq sud majlisi o'tkazildi.

Sudda huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Madad Husanov qilgan ishidan pushaymonligini

aytib, xato qilganligi uchun uzr so'radi. Unga Respublika Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solindi.

Qadrli metallurqlar! Unutmang, qonunni bilmaslik javobgarlikdan xalos etmaydi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sudyasi.



NEGA BIZDA QULDORLIK JAMIYATI RIVOJLANMAGAN?

"OMMAVIY MADANIYAT" XAVF SOLMOQDA

KATTALARGA HURMAT,
KICHIKLARGA IZZAT

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida vujudga kelgan Baqtriya, Xorazm kabi davlatlar boshqalarga nisbatan birmuncha boshqacha yo'ldan rivojlanib bordi. Agar Misr, Vaviloniya, Gresiya va Rim kabi davlatlarda qulchilik munosabatlari ijtimoiy taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan bo'lsa, bu yerda qulchilik sinfiy jamiyat darajasida rivojlanmagan.

Oddiy qilib aytganda bizning diyordalarda quldorlik tuzumi bo'lmagan. Deyarli butun dunyodagi davlatlarda quldorlar va qullar bo'lgani holda bizda o'z xalqini qul qilib ishlatishmagan. Odamlarga uy hayvonlaridek emas insonlardek munosabatda bo'lingan.

Qadimdan xalqimizda jamiyatdagi turli tabaqalarga qaramay ota-onaga, kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, har qanday vaziyatlarda sharmu hayo chegarasida turish kabi tushunchalar milliy qadriyatlar darajasida qaror topgan. Shuning uchun ham boylar, amaldorlar hattoki shohlar ham kambag'al bo'lsada yoshi kattalarga izzat

ko'rsatishgan. Bu ming yillar mobaynida shakllanib kelgan.

QADRIYATLARIMIZGA
MUTLAQO ZID

Biroq bugun "ommaviy madaniyat" xalqimizning bu muqaddas jihatlariga xavf solmoqda. Oilada haqiqiy tarbiya ko'rganlar hech qachon kattalarga nisbatan hurmatsizlik qilmaydi, behayollik, betgachoparlik, o'zbiarmonlik illatlariga yo'l qo'ymaydi. Taassufki, bugungi kunda internet orqali ijtimoiy tarmoqlarda avj olayotgan "ommaviy madaniyat" namoyishlari, xalqimizga xos bo'lmagan tarbiya yigit-qizlarni yuqoridagi illatlarga "oshno" qilib qo'ymoqda. Eng yomoni "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari yoshlarimiz orasida urfga aylanib ulgurmoqda. Aslida bu xatar zamirida qadriyatlarimizga mutlaqo zid, oilalarni tanazzulga, parokandalikka boshlaydigan, mehr-oqibatdan yiroqlashtiradigan

xudbinlik, insonning fahm-farosatini o'tmaslashtiradigan madaniyatsizlik yotadi.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqqa mixlanib qolishlari ularning sog'lig'i uchun qanchalik zararli bo'lsa, ruhiy jihatdan ham shunchalik xavflidir.

AXLOQQA SALBIY
TA'SIR KO'RSATADIMI?

Bugun nazoratsiz farzandlarimiz internetga kirib "o'rgimchak to'ri"da xohlaganicha sayr qilishi, istagan saytga kirib turli behayo ma'lumotlarni ham o'qishi, ko'rishi mumkin. Bu esa bolaning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatib, unda jangarilik, axloqiy buzulqilik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik kabi illatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda o'g'il-qizlar qo'lidagi ko'p funksiyali uyali aloqa vositalari ham "bunday natijalarga kutilganidan ham tezroq yetishi"da "beminnat" xizmat ko'rsatayotgani sir emas.

Shuning natijasida bunday yoshlarda hayo kamayib, qariyalarga hurmatsizlik qilish, ular bilan bemaslahat ish qilish oddiy odatga aylanib borayotganligi achinarlidir.

HAYO
YOMONLIKNI
TARK QILISHGA
ODATLANTIRADI

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bizga bergan tavsiyalarida: "Har qanday ishni yoshi ulug'laringiz bilan boshlanglar", "Hayo bir xulq bo'lib, yomonlikni tark qilishga odatlantiradi va kattalarga hurmatsizlik qilishdan saqlaydi" deganlar.

Zero, baraka, yoshi ulug'lar bilan birgalikda qilingan ishlar dadir. Shuning uchun bizning odatlarimizdan biri shuki, quriladigan har yangi binoning tamali qazilayotganda yoshi ulug'lar taklif qilinadi. Biror ish maskani ochilishida yana ulug'larimiz vositasi bilan ochiladi.

Bugun farzandlarimizni "ommaviy madaniyat" illatlaridan asrash har doimgidan muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Oilalarda birinchi navbatda farzandlarimizni "ommaviy madaniyat" illatlaridan himoya qilish uchun hamisha ogoh va hushyor bo'lishimiz lozim. Zero, zararli ta'sirlar xuddi havoga ko'tarilayotgan chang atrof-muhitga, inson salomatligiga xavf solgani kabi yoshlar ongida ham zaharli asoratlarni qoldiradi.

Diyor ZULFIQOROV.



MEHNAT TA'TILIDAN CHAQIRIB OLISH

Yillik mehnat ta'tilidan xodimning roziligisiz ishga chaqirib olsa bo'ladimi? Ishga chaqirilgan xodimning qolgan ta'til kunlari hamda uning puli masalasi qanday hal etiladi?

Sh. Eshmatova.



Mehnat kodeksining 232-moddasiga asosan har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga ta'tilning istalgan vaqtida faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Kodeksda shunday toifa vakillari borki, bu toifa vakillarini ta'tildan chaqirib olish mumkin emas. Kodeksning 232-moddasi 2-qismiga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni, mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Kodeksning 230-moddasiga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega sabablarga ko'ra joriy yilda har yilgi mehnat ta'tilini to'liq berish imkoni bo'lmagan alohida hollarda xodimning roziligi bilan ta'tilning 14 kalendar kundan ortiq bo'lgan qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin bo'lib, ushbu yil davomida undan foydalanilishi shart.

Ya'ni xodimni ta'tildan chaqirib olishda shunga e'tibor berish kerakki, xodim mehnat ta'tilining yaxlit 14 kalendar kuniga teng qismidan joriy yilda foydalanilishi shart.

Ta'til qismlarga bo'linganda ta'tilning yaxlit bir qismi 14 kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak.

Xodim ta'tildan chaqirib olinsa ta'til puli taqdiri nima bo'ladi?

"Yillik mehnat ta'tili vaqtida saqlanib qolinadigan o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma 21-bandiga ko'ra, xodim ta'tildan chaqirib olinsa va ta'tilning qolgan qismi boshqa muddatga ko'chirilsa, ta'tilning ko'chirilgan kunlariga to'g'ri keladigan to'langan o'rtacha ish haqi summasi bajarilgan ish yoki ishlangan vaqt uchun oylik ish haqi hisobiga yoziladi. Ta'tilning foydalanilmagan qismi kunlariga haq to'lash uchun o'rtacha ish haqi belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi.

MULKIMNI GAROVGA QO'YSAM MUAMMOLAR BO'LMAYDIMI?

Hamkasbim kredit olmoqchi bo'lib mendan mulkimni garovga qo'yishni iltimos qildi. Bu faqat rasmiyatchilik uchun kerak, sizga hech qanday og'irligim tushmaydi deb meni ishontirmoqda. Men uning keredit olishi uchun mulkimni garovga qo'ysam haqiqatan ham muammolar bo'lmaydimi?

T. Salimov.



So'ngi vaqtlarda mulkini garovga qo'yib kimgadir kredit olib bergan va kreditni olgan tomon kredit to'lovlari to'lanmaganligi natijasida garovga qo'yilgan mulkning undiruvga qaratilishi bilan bog'liq nizoli masalalar ko'paydi.

Kimgadir mulkni garovga qo'yib kredit olib berishdan oldin yetti

o'ylab bir marta kesish kerak. Sababi agar kredit olgan odam kreditni vaqtida to'lama, sizning chuv tushganingiz shu.

Garov qonunchiligida bir qoida bor garov - talabning amalda qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi. Bu nima degani? Ya'ni siz garovga qo'yilgan mulkingiz bilan Garov to'g'risidagi qonunning 6-moddasiga asosan nafaqat asosiy qarzni qoplaysiz balki kreditga hisoblangan foizlarni, neustoykani, ijroni kechiktirib yuboris h natijasida yetkazilgan zararni ham qoplab berishingiz kerak bo'ladi.

Bir nechta mehnat ta'tillaridan o'z vaqtida foydalanmaganman. Agar ishda bo'shasam bu ta'tillarim uchun pulini olishim mumkinmi?

S. Burxonova.

FOYDALANILMAGAN TA'TIL PULI BERILADIMI?

Mehnat kodeksining 172-moddasiga asosan Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodim bilan hisob-kitob qilinishi kerak.



Shunga asosan Sizga foydalanilmagan barcha asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar beriladi.

Shuningdek, ishdan bo'shayotganda xodimga oxirigacha olinmagan ish haqi, agar mehnat to'g'risidagi qonunchilikda yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida boshqa to'lovlarni to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu to'lovlar ham to'lanadi.

TUHMATCHILAR UCHUN QANDAY JAZOLAR BELGILANGAN?

Yaqinda hasad tufayli bir tanishim meni yomonotliq qilish maqsadida tuhmat gaplar tarqatdi. Tuhmatchilarni sudga berib men haqidagi gaplar tuhmat ekanligini isbotlamoqchiman. Qonunchilikda tuhmatchilar uchun qanday jazolar belgilangan?

A. Sahobova.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasiga asosan tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 139-moddasida tuhmat uchun sud tomonidan qanday jazolar berilishi ko'rsatilgan. Unga ko'ra tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, shunday harakatlarni uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari

yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilish, - bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.



KREDITNI BOSHQAGA O'TKAZISH MUMKINMI?

Bir uy olmoqchi edim, lekin uyni 13 yillik krediti bor ekan. Shunga agar uyni olsam uyni ham, bank to'lovlari ham uy egasi nomimga o'tkazib beradimi?

K. Berdiyev.

Yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e'tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo'yishga haqli.

Agar kafil yoki garovga qo'yuvchi yangi qarzdor uchun javob berishga rozi bo'lmasalar, qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov bekor bo'ladi.

Demak, bank rozi bo'lsa yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.



Fuqarolik kodeksining 322-moddasiga binoan qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

SOG'LIQNI SAQLASHDA YANGI STRATEGIYA QO'LLANMOQDA

MUQOBIL VARIANTLAR

Buyuk Britaniyada ekspert va olimlar zararli odatlardan aziyat chekadigan fuqarolar hayotini uzaytirishning yo'lini topdi. Ushbu mamlakatda sog'liqni saqlashning yangi strategiyasi – zararni kamaytirish konsepsiyasi qo'llanmoqda, u zararli odatlardan voz kechishdan qiynalayotganlar uchun bu odatlarni to'liq taqiqlashni emas, balki ularni kamroq zararga ega muqobil variantga almashtirishni taklif etadi.

Germaniyada bu strategiya 20 yildan buyon qo'llanadi va u zararli odatlar sababli yuzaga keladigan kasalliklardan o'lim holatlarini qariyb 30 foizga qisqartirish imkonini beradi. O'limga olib boruvchi kasalliklarni chaqiruvchi asosiy odatlar – alkogolizm, nosog'lom ovqatlanish,



chekish. Dunyodagi o'limlarning 80 foizigacha qismi ushbu odatlar tufayli yuzaga kelgan kasalliklar sababli ro'y beradi.

KAMROQ ZARARLI MODDALAR AJRATADI

Germaniya va Buyuk Britaniya ekspertlari ma'lumotlariga ko'ra tamakining yonishi ro'y bermaydigan tutunsiz muqobil variantlar kashandalarning taqriban 10 yillik hayotini saqlab qolishga yordam berishi mumkin. Chekishdagi asosiy xatarlar bu faqat nikotin emas, balki qatron, is gazi va sigaret tutunida mavjud zararli moddalardir. Tamakidan boshqa yonmaydigan, balki faqat qiziydigan elektron qurilmalar ham zararli. Faqat ular tamakiga nisbatan kamroq zararli modda ajratadi. Buyuk Britaniya Sog'liqni saqlash vazirligi veypingni kamroq zararga ega muqobil variant sifatida rasman tavsiya etadi. AQSHda esa Oziq-ovqat mahsulotlari va medikamentlar sifati ustidan sanitar nazorat boshqarmasi mashhur tamaki qizdirish tizimini inson organizmiga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulot sifatida sotishga ruxsat berdi.

UMRNI UZAYTIRADI

Ovqatlanishni to'g'ri yo'lga qo'yish umrni 5–8 yilga uzaytirishda yordam berishi mumkin. Bu borada ovqat hazm qilish kasalliklari hamda vazn va tomirlar bilan bog'liq kasalliklarni istisno qilish uchun ovqatlanishdan qand, tuz va tran-



syog'larni chiqarib tashlash, ularni meva, steviya va yog'siz go'sht bilan almashtirish tavsiya etiladi. Ko'proq sabzavot va bug'da pishirilgan taom yeyish maqsadga muvofiq.

Alkogolning zarari kamaytirilganda 5–10 yillik hayotni asrab qolish mumkin. Alkogolni suiiste'mol qiluvchi odamlarga ichkilik darajasini eng bo'lmaganda 20 foizgacha kamaytirish tavsiya etiladi.

OSON YO'L

Avvalambor zararli odatlardan to'liq qutilishga harakat qilish zarur. Biroq zararli odatlardan qutilish odatda uzoq davom etadigan va hayot tarzini butkul o'zgartirishni talab etadigan jarayon bo'lib, har kim ham uning uddasidan chiqa olmaydi. Bundaylar uchun zararli odatlar miqdorini kamaytirish osonroq bo'ladi. Shuning hisobiga ham odam umri ancha uzayadi.

RUHIY SALOMATLIKSIZ SOG'LOM BO'LISH IMKONSIZ

Ruhiy salomatlik bu – psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo'lib, unda inson o'z imkoniyatlarini anglab etadi, hayotdagi qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, samarali, ongli faoliyat olib boradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Avvalo, bu psixikaning barqaror, yetarli darajada ishlashi, shuningdek, asosiy bilish jarayonlari: idrok, xotira, diqqat, tafakkur tufayli amalga oshiriladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'kidlashicha har to'rtinchi odam ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda.

VAQTIDA MUTAXASSISGA MUROJAAT QILISH KERAK!

Ruhiy salomatlik tushunchasi omma orasiga sekin-asta kirib boryapti, chunki ruhiy muammolar bizni tobora ko'proq bezovta qilyapti: tushkunlik, stress, xavotir. Vaqtida mutaxassisga murojaat qilish esa bizda odatga kirmagan – muammolardan o'zimizni qaerga qo'yishni bilmay qolgan chog'imizdagina bu esimizga tushadi yoki... tushmaydi. Aslida esa salomatlikka putur yetmasdan turib salomatlikni saqlash kerak. Bu jismoniy salomatlikka ham, ruhiy salomatlikka ham tegishli. Ruh salomat bo'lgandagina inson o'zini to'laqonli salomat his qilishi va to'laqonli ijtimoiy faol bo'lishi mumkin. Demak, salomatlik deganda faqat jismoniy emas, ruhiy tomondan ham o'zimizni yaxshi his qilishimiz kerak.

Odamlar qashshoqlik, zo'ra-vonlik, tengsizlik bilan bog'liq muammolarni boshdan kechirganda ruhiy kasalliklar xavfi yuqori bo'ladi. Insonning aqliy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan

davrlarda – birinchi navbatda bolalikda – odamga ta'sir qiladigan xavf omillari, ayniqsa, xavflidir.

ISHDAGI STRESS RUHIY SALOMATLIKKA PUTUR YETKAZISHI MUMKIN



Izlanishga ko'ra, ishdagi stress tufayli yuzaga keladigan ruhiy salomatlik buzilishining eng keng tarqalgan turlari depressiya va muntazam bezovtalikdir.

Yiliga 300 milliondan oshiq odam depressiyadan aziyat chekadi, 260 milliondan oshiq odam doimiy xavotirda yashaydi. Bu esa ishchilar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, depressiya va muntazam xavotir bo'lishdan dunyo iqtisodi yiliga 1 trillion dollar zarar ko'radi.

Ishchilar uchun yaxshi muhit yaratib, ruhiy qiyinchiliklarga duchor bo'lganlarni qo'llaydigan tashkilotlar esa o'z samaradorligini oshiradi.

SALOMATLIKNI QANDAY ASRASH KERAK?



Ruhiy salomatlikni asrash uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilsangiz faqat foyda ko'rasiz.

- to'g'ri ovqatlanish
- jismoniy faollik;
- o'z his-tuyg'ularini to'g'ri qabul qilish;
- emotsiyalarni boshqarish;
- kuchli va kuchsiz tomonlarini yaxshi bilish;
- qiziqishlar va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kitob o'qish va hamfikrlar bilan muhokama qilish;
- o'z yaqinlariga yoqimli syurprizlar qilish;
- tabassum qilish;
- mustaqil va erkin bo'lish;
- stressga nisbatan qat'iyatlilik;
- fikrlash uslubini o'zgartirish.

Inson uchun muhimi salbiy emotsiyalarga boy bo'lgan har xil teleko'rsatuvlarni ko'rishni to'xtatish, salbiy odamlar bilan muloqot qilmaslik, atrof-muhitdan faqat ijobiy tomonlarni izlash, qo'shnilar va rahbarlardan tortib hukumatga qadar hamma narsani

tanqid qilishni to'xtatish, har qancha og'ir sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar, umidsizlikka berilmalik, hayotning barcha ko'rishlarini ijobiy qabul qilish.

KASALLIKKA OLIB BORUVCHI MAHSULOTLAR

Konserva mahsulotlari hamda kolbasa, sosiskalar. Imkon qadar bu mahsulotlarni ratsioningizga kimgazmasangiz yaxshi bo'ladi. Bularning tarkibida qo'shimchalar borligi inson tanasiga zararlidir.

Gazli ichimliklar, kola-fantalar. Bular ratsionimizda umuman bo'l-magani yaxshi. Chunki bu karbonat kislotaga angidridini inson tanasi ichkariga kiritmasdan aksincha tashqariga chiqarish kerak bo'ladi.

Margarinlar. Yurak-qon tomir kasalliklariga olib keladi.

Eng yomoni – bu **shakar** va shakar mahsulotlari. Bolalarning immun tizimini sustlashtiradi. Kattalar orasida ham turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bu mahsulotlardan ehtiyot bo'ling!



COCA-COLA SUPERLIGA COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA*

“METALLURG” IRODA KO'RSATDI

Avgust oyida “Metallurg” chempionat peshqadamlari va musobaqa jadvalida yaqin joylashgan klublar bilan bir qator og'ir uchrashuvlar o'tkazdi. Bu o'yinlarda “Metallurg” har qanday jamoalar bilan maydonda bimalol tengma teng to'p surishi mumkinligini amalda isbotladi.

O'YINGA MOS, ADOLATLI DURANG BO'LDI

Chempionat karvonboshisi “Navbahor”ga qarshi 15-turda jamoamiz juda qiyin, og'ir o'yinni o'tkazdi. “Metallurg” so'nggi soniyalarda mag'lubiyatni durangga aylantirdi va o'z irodasi, xarakterini ko'rsatdi.

Bekobodda 4-avgust kuni bo'lib o'tgan bu bahsning dastlabki daqiqalaridanoq tashabbusni qo'lga olgan namanganliklar mahalliy muxlislarni qattiq xavotirga solib qo'yishdi. 3-daqiqadayoq hakam Ivan Yosovichga sariq kartochka ko'rsatdi va mezbonlar darvozasi tomon jarima zarbasini belgiladi. Toma Tabatadze tepgan to'pni



Akmal Ortiqov katta qiyinchilik bilan qaytardi. To'pga birinchi bo'lib yetib kelgan “Navbahor” o'yinchisi boshi bilan darvozani ishg'ol etdi. Ammo bu gol inobatga olinmadi, ofsayd bor ekan. Oradan biroz vaqt o'tgach uchrashuv bosh hakami Kerim Palichga qizil kartochka ko'rsatdi. Bu vaziyatga VAR aralashuvi natijasida qizil sariqqa aylandi.

22-daqiqada futbolchilarimiz qanotdan to'pni jarima maydoniga uzatib berilishiga qarshilik ko'rsatishga olmadi. To'pga hammadan birinchi bo'lib yetib kelgan raqib yarim himoyachisi Ibrohim Yo'l-doshevich hisobni ochishga muvaffaq bo'ldi - 0:1.

Birinchi taymda jamoamizning hujumdagi o'yini qovushmadi. Mehmonlarda esa hisobni oshirish imkoniyati bo'ldi. Oston O'runovning yakkama yakkaga chiqqan vaziyatida Akmal Ortiqov jamoamizni muqarrar goldan qutqarib qoldi.

Ikkinchi taymda jamoamizning o'yini keskin o'zgardi. Endi to'p nazorati va tashabbusni yigitlarimiz o'z qo'llariga olishdi. Natijada mehmonlar darvozasi yonida birin ketin xavfli vaziyatlar tug'ila boshladi. Mehmonlar esa qarshi hujum taktikasiga tayanishdi. Bahs yakuniga yaqinlashgani sayin “Navbahor” qayd etilayotgan hisobni ochiqchasiga saqlab qolishga harakat qildi. O'yinning so'nggi daqiqalarida “Metallurg” himoyani tashlab to'liq kuch bilan hujumga tashlandi. Himoyachi o'rniga ham maydonga hujumchi tashlandi va buning samarasi so'nggi soniyalarda qo'lga kiritildi. Zahiradan maydonga tushirilgan Damir Temirovning ajoyib to'p oshirishidan keyin Zabixillo O'rinboev jarima maydoni ichida ikkinchi qavatda ustunlik qildi va boshi bilan to'pni urib, darvoza to'riga tushirdi - 1:1.

O'yinga mos, adolatlidir durang bo'ldi.

OLTI OCHKOLIK O'YINDA ISHONCHLI G'ALABA!

16-turda musobaqa jadvalining xavfli qismida borayotgan jamoalarning Navoiy shahrida 13-avgustda o'tgan uchrashuvi juda murosasiz va qiziqarli kurashlarga boy o'tdi. Olti ochkolik o'yinga har ikkala jamoa puxta tayyorgarlik bilan kelganliklarini namoyish qilishdi. Himoyaga e'tiborni kuchaytirgan holda uzun to'p uzatishlar va tezkor qarshi hujumlar jamoalarning asosiy quroligi aylandi.

Birinchi taym prinsipial to'qnashuvlarga boy bo'lsa-da, darvozalarni ishg'ol etish hech kimga nasib etmadi.

Tanaffusdan qaytgach, hududiy ustunlik mehmonlar tomoniga o'tdi. 55-daqiqada chap qanotdan uyushtirilgan hujum payti mezbonlarning himoyachisi ja-



rima maydoni ichida to'pni qo'li bilan o'ynadi. Penaltini Husniddin G'ofurov bexato amalga oshirib hisobni ochdi - 0:1.

Shundan so'ng maydon egalari katta kuch bilan hujumga tashlanishdi. Ularning himoya chizig'ida bo'shliqlar yuzaga kela boshladi. Bunday ehtiyotsizlikdan bekobodliklar kompensatsiya vaqtidagina unumli foydalanishdi. Bektemir Abdumannonov navoiyliklar darvozasini aniq mo'ljalga oldi 0:2.

Juda muhim o'yinda asosiy raqiblaridan birini safarda mag'lubiyatga uchratish “Metallurg”ning ahvolini ancha mustahkamladi. Uchta autsayder bilan bizning oramizda yaxshigina farq yuzaga keldi.

KAMIDA DURANGGA HAQLI EDIK

Mamlakatning amaldagi chempioni hamda mavsum peshqadamlariga qarshi safar o'yinida tengma teng kurashgan jamoamiz 19-avgust kuni chempionatning 17-turida yagona gol evaziga imkoniyatni boy berdi. Maydon markazida o'yin qoidasining buzilishi hamda chap qanotdan tezkorlik bilan amalga oshirilgan kombinat siya oqibatida mezbonlarning polshalik legioneri Banashak Akmal Ortiqov qo'riqla-

yotgan darvozaga tanaffus arafasida gol urib ketdi va ushbu hisob o'yin oxirigacha o'zgartirib qoldi.

Aslida mezbonlardan katta bosimni kutgan murabbiylarimiz himoyaviy taktikani tanlab, uchrashuvni juda tartibli boshlagandi. Maydon egalari harchand harakat qilishmasin bekobodliklar qisqa to'p uzatishlar evaziga o'yin sur'atini susaytirib, qarshi hujumlarda hatto qulay vaziyatlar ham yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Afsuski, hujumni yakunlashda yigitlarimizda qat'iyat yetishmadi.

Tanaffusdan qaytgach bosh murabbiy maydonga yangi kuchlarni tashladi. Himoyachi o'rniga hujumchi chiqarildi. Bu esa o'yin ko'rinishini keskin o'zgartirdi. Bektemir Abdumannonovning tezligi evaziga kamida ikki marta raqib darvozasini nishonga olish imkoniyatiga ega bo'ldik ham. Birida Bektemirning yaqin masofadan bergan zarbasidan so'ng to'p darvoza to'sini ustidan o'tib ketgan bo'lsa, yana bir vaziyatda Shahzod Ubaydullayevning bosh bilan zarbasiga biroz aniqlik yetishmadi. Shuningdek, Husniddin G'ofurovning birinchi taym so'ngida kuchli zarbasidan keyin to'p darvoza to'siniga tegib maydon tashqarisiga chiqib ketganligini ham inobatga oladigan bo'lsak, “Metallurg” “sherlar”ga qarshi o'yinda kamida durangga haqli edi...

“Metallurg” 30-avgustda “So'g'diyona”ga qarshi maydonga tushdi.



UY O'YINLARI OLMALIQA O'TKAZILADI

Liga reja asosida professional futbol klublari uy uchrashuvlarini o'tkazadigan arenalarning sug'orish va drenaj tizimlari, projektor, maysalarini talab darajasiga keltirishda davom etadi. 2023-yilgi mavsum davomida Jizzax, Andijon, Olmaliq shaharlaridagi stadionlar qayta foydalanishga topshirildi. Ayni vaqtda Termiz shahridagi stadionda qurish-ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Endilikda Bekoboddagi stadionga navbat etib keldi. O'tgan yilning mart oyida Liga hamda “O'zmetkombinat” AJ rahbariyati o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tgan hamda mazkur masala muhokama qilingandi. Bekobodda respublikadagi eng yaxshi futbol akademiyalaridan biri ishga tushirilgan bo'lib, mazkur holat futbol klubi ishni poydevor qo'yishdan boshlaganligini anglatadi.

Klub uchun navbatdagi qadam stadion mayyasi va projektorlarini yaxshilash, shuningdek, Bekobod shahridagi qator futbol maydonlariga ishlov beruvchi texnika xarid qilish bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, “Metallurg” sentabr oyidan boshlab o'z uy uchrashuvlarini Olmaliq shahridagi OKMK stadionida o'tkazadi. Yuqoridagi ishlar amalga oshirilganidan keyin futbol klubi Bekobodga qaytadi.

Vatan bu kishi faxrlanishi mumkin bo'lgan eng qimmatli narsadir. Vatan bu insonning kindik qoni to'kilgan yer, go'dakligidan tetapoya qilib yurishni boshlaganda unga poyandoz bo'lgan, bola bo'lib o'ynab-kulib yurganda uning uchun keng dala, keksayganda esa panoh bo'lgan, hayotiy xotiralarining tirik guvohi, ota-bobolarining zamini, farzandu nabiralarining ham uyi bo'lgan muborak bir makondir.

Vatanning har bir qarichi qalblarimizga mahjub. Uning havosi, suvi va mevalari biz uchun aziz va qadrli. Tarixdagi barcha shoirlaru yozuvchilar, olimlaru ziyolilar vatan tuyg'usini tarannum etganlar.

Vatan tarkini bir nafas aylama

VATAN TARKINI BIR NAFAS AYLAMA!



Yana ranju g'urbat havas aylama, mehru muhabbatini izhor qilish
– deyдилar hazrat Alisher Navoiy. faqat his-tuyg'ulari nozik bo'lgan
Lekin vatanni sevish, unga bo'lgan shoir xalqigagina xos emas, balki

insoniyat tarixdagi hatto bosqinchi podshohlar ham buni his qilganlar.

Shubhasiz, vatanni sevish hissi har bir insonning fitratida, tabiatida bor. Shu bois ham kishi vatandan uzoqlashganda unga nihoyatda qattiq talpinadi, judolik alamidan o'rtanadi va vataniga oid bo'lgan barcha narsani sog'ina boshlaydi.

Shayx Muhammad G'azzoliy aytdilar: "Bashar o'z yeriga, garchi u taqir sahro bo'lsa ham qattiq bog'ladi. Vatanni sevish inson ruhiyatidagi asl tabiatdir. Ushbu tabiat vatanda yashashda huzur-halovat, undan uzoq bo'linganda sog'inch, hujum qilinganda mudofaa va kam-sitilganda g'azab hislarini paydo qiladi".

DONOLAR BISOTIDAN

MAHZUN BO'LMA!

Hech qachon mahzun bo'lma! Chunki qayg'u seni o'tmishingdan bezovta qilib, kelajakdan xavotirga soladi, oqibatda bugungi kuningni yo'qotasana...

Hech qachon mahzun bo'lma! Chunki qalb qayg'u bilan ovora bo'lib, ruhing so'nib, yuzingning nuri ketadi. Orzu umidlaring yo'q bo'ladi...

Jaloliddin Rumi.

IKKI XIL KO'Z

Kishining ikki xil ko'zi bo'ladi: tan ko'zi va qalb ko'zi. Tan ko'zi ba'zan ko'rganlarini unutib qo'yadi, lekin qalb

ko'zi ko'rgan kechirganlarini hamisha esda tutadi.

Aleksandr Dyuma.

QIYIN MASALA

Gapirishni o'rganish uchun odam bolasiga ikki yil kifoya. Tilni tiyishga o'rganish uchun oltmish yil kerak.

Rasul Hamzatov.

ISHONCHLI KISHI

Hayotimda ishonadigan bitta inson bor. Bu men, o'zimman. Bilasizmi nega? Chunki bu insondan hali ko'nglim qolgani yo'q.

Umar Xayyom.

TENGDOSHLAR

HAJVIYA

Nogahon anchadan beri uchrashmagan tengdoshingizni ko'rib qolgan chog'ingizda unga sinchiklab nazar solib: "Men bunchalar qari ko'rinmasam kerak", deb o'ylaganmisiz? O'ylagansiz-a? Bu ko'pchilikda uchraydigan tanish holat.

Hayotda tish og'rig'idan yomoni yo'q – stomatolog huzuriga uchib keldim. Dahlizda navbatga yozildim-u, oldimdagi odamlar siyraklashishini kuta boshladim. Devorlarga osig'lik suratlarini befarq kuzata turib tish shifokorlari ro'yxatida tanish chehra va nomga ko'zim tushdi. Xotiramda qirq yil avval maktabni bitirish onlari, bo'ydor, qora sochli, hamma qizlarni aqlini o'g'irlagan barno yigit jonlandi. Tan olamanki, men ham pinhona sevardim. Bu o'sha yigitning o'zimikan-a...

Ko'p o'tmay navbatim keldi va uning qabuliga kirish nasib etdi. Xonaga kirdim-u, boyagi shirin xayollarim yovvoyi kaptardek uchdi-ketdi. Ro'paramda boshida bir dona tuki qolmagan taqirbosh, peshonalari qavat-qavat ajin bosgan keksa bir kishi turardi. Bu men tengi

odam emas-ku. Axir, bu boshqa odam-ku... Indamay tishlarimni tekshirtirdim-u, xonadan chiqar chog'imda past tovushda:

– Kechirasiz, mabodo Munxva maktabida o'qiganmisiz? – deb so'radim.

– Ha, shunday. O'sha maktabni tamomlaganman. Topdingiz, – dedi u peshonasini battar tirshtirib, jilmayarkan.

– Qachon tamomlagansiz? – 1975-yilda. Nega so'rayapsiz?

– Haaa... Demak, bizning guruhimizda o'qigan ekansiz, – dedim yengil tin olib.

"Odam o'ziga qaramasa, yashash qadrini bilmasa, mana shunaqa xunuklashib, tezda qarib qoladi. Menga qiyo boqmaganding-a bir zamonlar. Senga tegmaganim yaxshi bo'lgan ekan. Ko'rinishingni qara", deya ichimda kerilib qo'ydim.

U menga qiziqsinib obdon termildi va eslolmadi, shekilli:

– To'g'risi, yodimda yo'q. Siz qaysi fandan dars bergansiz, buvi- jon? – dedi u ko'zlari mo'ltirab.

Kim Sok TE

Otabek YO'LDOSHOV
tarjimasi.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

O'zbekiston Respublikasi Qurilish sohasi xodimlari kunini belgilash to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan.

Birinci temiryo'l qachon va qaerda qurilgan?



Sayyoramizda zilzilalar eng kam sodir bo'ladigan mamlakat?

O'zbekistonning eng keksa qo'riqxonasi qanday nomlanadi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Sahroi Kabir. Liviya. Saudiya Arabistoni. O'rta dengiz. Moldingo qancha ko'p bo'lsa ham insonning mol-dunyoga bo'lgan nafi hech qachon to'ymas ekan.

XANDALAR

– Og'ayni, menga qarz bera olasani?

– Nima uchun?
– Esdalik uchun

Bir alkash og'aynisiga:

– Nega menga jin, deb laqab qo'yishgan?

– Kim butilka ochsa sen paydo bo'lasan-da.

Ikkita qo'shni gaplashib o'tirsa biri debdi:

– Hoy qo'shni, oldingizdan ikkita qop chiqdi. Birida to'la oltin, ikkinchisida esa aql. Siz qaysi birini olardingiz? – desa, qo'shni ham o'zini ko'rsatmoqchi bo'lib:

– Men aql solingan qopni olardim, – desa, qo'shnisi:

– Ha, kimga nima yetmasa shuni olad-da... – dermish.



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda
Metallurg Minbari

MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O' zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota" hududi "Mash'al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O' zmetkombinat" AJda bepul tarqatiladi.